

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

Abdug'opirova Feruza Akramjon qizi
Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
Tel:+99893-925-82-90 e.mail: Odilbek82@umail.uz

Annotation:

This article deals with the further improvement of the preschool education system, the introduction of modern educational programs and technologies in the educational process, the comprehensive intellectual, moral, aesthetic and physical development of children, the study of ways and methods of developing the cognitive activity of preschoolers.

Keywords: preschool education, education-education, children, activity, development, cognitive activity, cognition, school, society, mental abilities.

Bugungi kunda uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor har qachongidan ortib bormoqda. Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimining boshlang'ich poydevori bo'lgan maktabgacha ta'limni sifatli va zamon talabi darajasida tashkil etilishini ta'minlash borasida keng qamrovli islohotlar, qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[1] qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[2] da mavjud tizimli kamchiliklar, maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan sabablar ko'rsatilgan.

Ahamiyatli tomoni dunyo tajribasida hali kuzatilmagan yana bir qaror, ya'ni yurtboshimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3305-sonli Qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga berilgan sharhda ta'kidlanganidek: "... bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda"[3].

"O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" da esa "...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish" masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yildi"[4]. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yuqoridagi Qaror va Farmonlar uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashda dasturilamalga aylandi.

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"[5] va "Ilk qadam"[6] Davlat dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi islohotlar ota-onalardan tortib barcha

pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 1-ilovasiga muvofiq "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi. Unga muvofiq:

- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;
- bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorgarligini ta'minlash;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish kabi masalalar belgilab qo'yilgan[7].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish yo'llari va usullarini o'rganish muammosi pedagogikaning muhim muammolaridan biridir. Atrof-olam, dunyoni anglashga qiziqish, noma'lum narsani bilish istagi – asosan o'qitish va faoliyat samaradorligini belgilaydigan ustuvor xususiyatdir. Kognitiv harakatlarni tashkil etish bolada allaqachon shakllangan ehtiyojlarga, shu jumladan kattalar bilan muloqot qilish zarurligiga asoslangan bo'lishi kerak (harakatlar, amallar, qarorlar, fikrlarni tasdiqlash). Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda kognitiv (bilish) faoliyatini rivojlantirish muammosini hal qilishning ikki yo'li mavjud: keng va intensiv. Ularning ikkalasi ham bitta yakuniy maqsadga ega: bilimli, axloqli, ijtimoiy faol, qobiliyatli shaxsni tarbiyalash. Biroq, maqsadga erishishning yondashuvlari turlicha. Keng yo'l, birinchi navbatda, bolalarga etkazilgan bilim hajmini oshirish orqali amalga oshiriladi. Intensiv yo'l sub'ektiv, shaxsiy manfaatdorlik pozitsiyasini shakllantirishga asoslanadi va bu ta'lim dasturlari tarkibidagi o'zgarishlarni va o'qitish uslublarini intensivlashtirishni (rivojlanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) nazarda tutadi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosining yana bir dolzarbligi shundaki, insonning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasi faqat uning faoliyati va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o'z navbatida mustaqillik va tashabbusni shakllantirishga yordam beradi. Kognitiv faoliyat bolaning faolligini, uning bilimga bo'lgan ishtiyoqini, noma'lumdan ma'lumni aniqlashga bo'lgan harakatini ta'minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda "bilish faoliyati" tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Kognitivlik bolaning mustaqil faoliyatga intilishini anglatadi, ijtimoiy tajribani, insoniyat tomonidan to'plangan faoliyat usullarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Manbalarda kognitiv faoliyat bilan bir qatorda kognitiv qobiliyat iborasi ham keng qo'llaniladi. Kognitiv qobiliyat bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u bolaning intellektual rivojlanishi, uning atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini aniqlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Qobiliyatlar – bu insonning individual psixologik o'ziga xosligi bo'lib, ilmiy, amaliy va ijodiy faoliyatida namoyon bo'lishini hamda uni amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pedagogika va psixologiyaning zamonaviy rivojlanish bosqichida kognitiv qobiliyatlar bolaning intellektual va hissiy qobiliyatlarining kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. Kognitiv qobiliyat har qanday bilim faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ya'ni kognitiv (bilish) qobiliyatlari atrofidagi dunyoni bilishga qaratilgan, sharoit va omillar ta'siri ostida rivojlanayotgan insonning individual xususiyatidir.

Bolani maktabga tayyorlash muammosi o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Maktabga tayyorgarlik turli tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Dastlab, asosiy e'tibor maktabgacha yoshdagi bolalarga qanday bilim va ko'nikmalarni berish kerakligiga, bolani har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun qanday sharoitlar yaratish kerakligiga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim va maktab muhitining o'zaro samarali aloqasi, kombinatsiyasi bolaning maktabgacha yoshdan maktabga o'tishini yengillashtiradi. Bu borada bolalarning aqliy



qobiliyatlarini shakllantirish, bilish faolligini rivojlantirish, boshlang'ich intellektual va amaliy faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bolani maktabga tayyorlash muammosi o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Maktabga tayyorgarlik turli tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Dastlab, asosiy e'tibor maktabgacha yoshdagi bolalarga qanday bilim va ko'nikmalarni berish kerakligiga, bolani har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun qanday sharoitlar yaratish kerakligiga bog'liqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta'lim va maktab muhitining o'zaro samarali aloqasi, kombinatsiyasi bolaning maktabgacha yoshdan maktabga o'tishini yengillashtiradi. Bu borada bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, bilish faolligini rivojlantirish, boshlang'ich intellektual va amaliy faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "... bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. ... Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat"[8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги “2017-2021 йилларда мактабгacha таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2707-сонли Қарори/Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 11-модда, 35-сон, 923-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон; 01.01.2020 й., 07/20/4555/4257-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги “Мактабгacha таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3261-сонли Қарори / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 984-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2020 й., 07/20/4857/1357-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Мактабгacha таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-3305-сонли Қарори/Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.09.2017 й., 07/17/3305/0038-сон; 05.04.2018 й., 07/12/3651/1007-сон, 01.10.2018 й., 07/18/3955/1978-сон; 09.10.2020 й., 07/20/4857/1357-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги “Ўзбекистон Республикаси мактабгacha таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш Концепцияси тўғрисида”ги ПҚ-4312-сон Қарори/Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.05.2019 й., 07/19/4312/3106-сон; 09.10.2020 й., 07/20/4857/1357-сон.
5. Ўзбекистон Республикаси Мактабгacha таълим вазирининг 2018 йил 18 июндаги 1450-сонли “Илк ва мактабгacha ёшдаги болаларнинг ривожланишига қўйиладиган давлат талабларини тасдиқлаш ҳақида”ги Бўйруғи / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.07.2018 й., 10/18/3032/1450-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Мактабгacha таълим вазирлигининг “Илк қадам” давлат ўқув дастури. –Т.: 2018.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 май №391-сонли “Мактабгacha таълим ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори/Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.05.2019 й., 09/19/391/3120-сон.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент, 2020 йил 29 декабрь.